



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

SHAHRASOZLIKDA EKOLOGIK TOZA TRANSPORT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Rajabova Oltinoy Davron qizi, Sattarov Ne'matjon Azatbayevich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent v.b.

nemat@6778email.ru

Annotatsiya

Maqolada shaharsozlikda ekologik toza transport tizimlarini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Hozirgi kunda yirik shaharlar va ularning atrofida transport tirbandliklari, havoning ifloslanishi va aholining tezkor, xavfsiz harakatlanishini ta'minlash masalalari dolzarb hisoblanadi. Shu bois ekologik transport vositalaridan (elektrobus, tramvay, metro, velosiped yo'laklari va elektr poyezdlar) keng foydalanish shahar hayoti sifatini oshirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorlikka erishishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar

Ekologik transport, shaharsozlik, elektrobus, metro tizimi, transport infratuzilmasi, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, tirbandlikni boshqarish, aqlli transport tizimlari.

Kirish

Transport tizimi – har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biridir. Bugungi kunda yirik shaharlar oldida turgan asosiy muammolardan biri – transport vositalarining ko'pligi sababli tirbandliklarning ortishi, ekologik ifloslanish va yo'lovchilarning harakatlanish tezligining pasayib ketishidir. Aholining kundalik ehtiyojlari – ish, ta'lim, tibbiyot va dam olish xizmatlariga qulay yetib borishi transport tizimi samaradorligiga bevosita bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan, ekologik toza transport vositalarini rivojlantirish nafaqat shahar infratuzilmasini yaxshilash, balki jamiyatning ekologik xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ham zaruriy shart hisoblanadi.

Ekologik toza transport tizimining mohiyati, ekologik toza transport tizimi – bu havoga chiqindilarni kamaytiruvchi, energiya tejamkor va inson salomatligiga zarar yetkazmaydigan transport vositalari majmuasidir.

Bunga quyidagilar kiradi:

Elektrobus va elektr avtomobillar – dizel va benzin sarfini kamaytiradi, chiqindilarni deyarli nol darajagacha tushiradi.

Tramvay va trolleybuslar – uzoq muddatli va ekologik samarador jamoat transporti.

Metro tizimi – shahar markazidagi tirbandliklarni keskin kamaytiradigan eng samarali transport turi.

Velosiped va piyoda yo‘laklari – sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish bilan birga shahar havosini musaffo saqlashga xizmat qiladi.

Elektr poyezdlar – shahar va shahar atrofi transportida katta ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya

Ushbu maqola quyidagi ilmiy metodlar asosida tayyorlandi:

Tizimli tahlil – transport infratuzilmasining rivojlanishi va tirbandliklarning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri o‘rganildi.

Ekologik baholash – avtomobil chiqindilarining havoga ta’siri va uning kamayish imkoniyatlari baholandi.

Qiyosiy tahlil – O‘zbekiston shaharlaridagi holat Xalqaro tajriba (London, Istanbul, Moskva, Seul kabi shaharlar) bilan solishtirildi.

Natijalar va muhokama

Shaharsozlikda ekologik toza transport tizimlarini rivojlantirish quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga olib keladi:

Ijtimoiy natijalar:

Aholining transportdan foydalanish qulayligi oshadi;

Sog‘lom turmush tarzi targ‘ib etiladi;

Vaqt tejaladi va yo‘lovchilarning stress darajasi kamayadi.

Iqtisodiy natijalar:

Yo‘lovchilar samarali tashilishi mehnat unumdorligini oshiradi;

Energiya resurslari tejab qolinadi;

Transport xizmatlari rentabelligi ortadi.

Ekologik natijalar:

Havoga zararli chiqindilar kamayadi;

Shovqin darajasi pasayadi;

Yashil iqtisodiyot tamoyillari amalga oshadi.

Xalqaro tajriba:

London metrosi va elektrobus tizimi tirbandliklarni kamaytirib, ekologik barqarorlikka hissa qo'shmoqda.

Istanbulda metrobus va tramvay liniyalari shahar markazidagi avtomobil qatnovini qisqartirdi.

Toshkent shahrida metro liniyalarining kengaytirilishi, elektrobuslar xarid qilinishi va veloyo'laklar tashkil etilishi ekologik toza transport tizimining rivojlanishiga misol bo'la oladi.

Xulosa

Shaharsozlikda ekologik toza transport tizimlarini rivojlantirish – zamonaviy urbanizatsiya jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim yo'nalishdir. Metro, elektrobus, tramvay va veloyo'laklarning kengaytirilishi:

Aholiga qulay, xavfsiz va arzon transport xizmatini taqdim etadi;

Tirbandliklarni kamaytiradi;

Ekologik muhitni yaxshilaydi;

Iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Kelajakda "aqlli transport tizimlari"ni (ITS) joriy etish, yagona chipta va elektron to'lov tizimlari orqali barcha jamoat transportini integratsiyalash shaharsozlik siyosatining eng ustuvor vazifalaridan bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-noyabrdagi "Avtomobil transporti tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436-son qarori.

2. “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2001.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-fevraldagi “Shahar yo‘lovchi transporti xizmatlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
4. Abdurahmonov Q.X., Yusupov M.T. *Shahar transporti iqtisodiyoti va boshqaruvi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
5. European Commission. *Sustainable Urban Mobility Plans: Guidelines for Development and Implementation*. Brussels, 2019.
6. World Bank. *Green Transport and Urban Development*. Washington DC, 2021.

O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY KORXONALARNING FOND BOZORIGA CHIQISHIDAGI MUAMMOLAR VA TAHLILI

Tashkent Arxitektura Qurilish Universiteti

Igitov Jurabek Kuzibekovich v.b.dosent (PhD)

igitov2021@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanoat korxonalarining aksiyalar bozoridagi faoliyati tahlili: muammolar va yechimlar, korporativ qimmatli qog‘ozlar asosida korxonalar faoliyatini va loyihalarini moliyalashtirishning shakllanishi va xorijiy davlatlar tajribalari o‘rganilgan. Xususan maqolada so‘ngi yillarda sanoat korxonalarining aksiyalar bozoridan faoliyati davlat aktivlarining hozirgi holati, kapital bozorni rivojlantirish, qimmatli qog‘ozlar bozorida bir qancha qilingan islohotlar yoritib o‘tilgan. Sohalar bo‘yicha jami aksiyadorlar hozirgi ulushi va tuzilgan bitimlar haqida yoritilgan. Hozirgi paytda sanoat korxonalarining fond bozoriga kirishi va unda muntazam qolishi to‘g‘risida va uning muammolari haqida yoritib o‘tilgan. Jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy savotxonligi ularning respublika fond birjalardagi faoliyati va aholining oladigan daromadi xarajatlari tahlili yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar